

**ANNA AXMATOVA VA ABDULHAMID CHO‘LPON IJODIDA
SHARQ OBRAZI**

Temurov J.B.

Far DU o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada Anna Axmatova va Abdulhamid Cho‘lpon ijodida Sharq obrazining badiiy talqini qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda Axmatova lirikasida Sharq Toshkent davri she‘rlari misolida mifopoetik, ramziy va ekzistensial ma‘naviy makon sifatida namoyon bo‘lishi yoritiladi. Uning she‘rlarida tabiat obrazlari, Sharq motivi, atirgul, kishmish, bog‘ va tush kabi ramzlar orqali Sharq madaniy va ruhiy panoh sifatida talqin etiladi. Cho‘lpon lirikasida esa Sharq obrazi tarixiy-falsafiy mazmun kasb etib, mustamlakachilik sharoitida tanazzulga uchragan, ammo yangilanishi mumkin bo‘lgan sivilizatsiya timsoli sifatida tasvirlanadi. Shoirning “Sharq nuri” va “Bokuga Sharq qurultoyiga ketkanda” kabi she‘rlari asosida Sharqning tarixiy fojeasi, milliy ong va ijtimoiy harakat g‘oyalari tahlil qilinadi. Maqolada har ikki shoir ijodida Sharq obrazi turli poetik va g‘oyaviy kontekstlarda ochib berilib, uning XX asr rus va o‘zbek she‘riyatidagi estetik hamda falsafiy ahamiyati ko‘rsatib beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** Sharq obrazi, mifopoetik obrazlar, ramziy obrazlar, Sharq madaniyati, Shahrizoda obrazi, mustamlakachilik, milliy ong, lirik subyekt, tarixiy-falsafiy talqin*

Rus olimi V. Ivanov quyidagicha yozadi: “rus she‘riyati o‘z tarkibiga Sharqni ham – zamonaviy tajribada davom etayotgan tirik tariximizning bir qismi sifatida – qamrab oladi”¹. Adabiyotshunos D. Lixachev esa: “Osiyo bilan adabiy aloqalarning mavjud emasligi qadimgi rus adabiyotining eng hayratlanarli xususiyatlaridan biridir. Aytishga jur‘at etamanki, barcha boshqa Yevropa

¹Иванов Вяч. Вс. Темы и стили Востока в поэзии Запада // Иванов Вяч. Вс. Восточные мотивы. Стихотворения и поэмы. М.: Наука, 1985. 880 с.

adabiyotlari orasida aynan qadimgi rus adabiyoti Sharq bilan eng kam aloqalarga ega. Bu aloqalar Ispaniya, Italiya, Fransiya va, albatta, Gretsiya adabiyotlaridagi Sharq bilan bog‘liqlikka nisbatan ham, shuningdek janubiy va g‘arbiy slavyanlar adabiyotidagi holatga qaraganda ham ancha kamdir...’’², – deya ta’kidlaydi.

Rus va Osiyo o‘zaro “pok” va “nopok” makonlar sifatida qarshi qo‘yilgan, rus tili bilan “basurmon tili” esa – biri muqaddas, ikkinchisi esa “nopok” deb baholangan. D. Lixachev ta’kidlaganidek, “...faqat XVIII asrga kelib rus madaniyati Sharqni uning barcha an’ana va qadriyatlari bilan anglay boshlaydi va shu davrdan e’tiboran ilk salbiy tasavvur o‘rnini ijobiy munosabat egallaydi”³. Qisqacha aytganda, aynan XVIII asrda rus adabiyoti Sharq madaniyatiga, ayniqsa uning she’riy merosiga katta e’tibor qarata boshlaydi.

Anna Axmatova 1941-yildan 1944-yil may oyigacha Toshkent shahrida evakuatsiyada bo‘ladi. Shoirni “Osiyo” tabiati o‘zining jozibasi bilan maftun etadi. “Toshkent tabiati uning qalbiga shu qadar chuqur ta’sir qiladiki, “qora chinorlar”, “oq tereklar”, “mehribon shoxlar”, “eski uylarning tomlari”, “gullab turgan daraxtlar” – sharqona raqs ijro etayotgan “oy nuridagi raqschi qizlar”ga qiyoslanib, uning adabiy “zaxirasi”ni boyitadi. “Ariq”ning yoqimli shovullashi esa qo‘shiqchi ovozigaga tenglashtiriladi. Shuningdek, uning o‘ta sezgir nigohi “qora rayhon”, “o‘zbek palovi” (guruch donalari), “qizil atirgullar” hamda issiq va qizg‘ish nonlardan ham chetda qolmaydi; tog‘larni esa u afsonaviy “yigitlar”ga qiyoslaydi”⁴.

Anna Axmatova qadimiy obrazlardan foydalanib, ularga yangi ma’no va yangi ohang bag‘ishlaydi hamda o‘quvchini hamdardlikka, shoirona hammualliflikka undaydi. Bu holat, jumladan, “Vatan bermish bizga boshpana” she’rida ham yaqqol namoyon bo‘ladi:

Devor uzra gullamish novda,
Ko‘ngil o‘tkir lazzatni tuymish.
Tarorlanmas bu lazzat yana.

²Лихачев Д.С. Заметки о русском. 2-е изд., доп. М.: Сов. Россия, 1984. 240 с.

³Ўша манбаа

⁴Темуров Ж.Б. Миф о Востоке в лирике А.А.Ахматовой

Boqiy atirgullar, o‘rtada kishmish,
Vatan bermish bizga boshpana.

Mazkur parcha Axmatovaning 1943-yilda Toshkentda yaratilgan “Vatan bermish bizga boshpana” she‘ridan olingan bo‘lib, shoirning urush davri she‘riyatida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. “Axmatova ijodida bu davr (evakuatsiya) muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan mana shu davrga kelib shoir Sharq bilan yaqindan tanishadi va bu taassurotlar Axmatova tafakkurini sezilarli darajada boyitadi”⁵.

She‘ning ilk misralarida “Devor uzra gullagan shox” obrazi namoyon bo‘ladi. Bu o‘rinda devor – urush, tarixiy fojining ramzi bo‘lsa, ayni paytda shu devor uzra “shoxning gullashi” hayotning barcha to‘siqlardan ustun kelishini ham ifodalaydi.

Keyingi qatorda esa “o‘tkir lazzat” iborasi (oksyumoron) uchraydi. Bu o‘rinda “o‘tkirlik” – urush va azobni, “lazzat” esa go‘zallik va hayotni anglatadi. Demak, Axmatova lirik subyekti uchun go‘zallik azobdan ajralgan emas – aksincha, ular uyg‘un holda idrok etiladi.

She‘ning navbatdagi misrasidagi “Boqiy atirgullar” iborasi Ahmatovaning Toshkent davrida yozilgan boshqa she‘rlarida ham uchraydi. Va bu bejiz emas:

Boqiy atirgullar yurti Samarqand –
Shahriga borurmiz o‘lmoqlik uchun

Mazkur “boqiy atirgullar” obrazi Samarqand, Toshkent, Sharq muhiti bilan bog‘liq Axmatova lirikasiga xos bo‘lgan mifopoetik tasavvurni kuchaytiradi. A. Aymatov ta’kidlaganidek, “Sharq” deganda shoir buyuk ma’naviyat saltanatini va bu madaniyatni barpo etgan shaxslar va davrlarni tilga oladi”⁶ Markaziy Osiyoda madaniyat Amir Temur va Temuriylar davrida rivojlangan. XIV–XV asrlarda Mavarounnahr va Xorazmning madaniy rivojlanish asoslarini buyuk qo‘mondon, sarkarda Amir Temur qo‘ygan. Bu davrda Samarqand Sharqning madaniy

⁵ Темуров Ж.Б. Миф о Востоке в лирике А.А.Ахматовой

⁶ Айматов А. Қ. Абдулхамид Чўлпон эстетикасининг ғоявий-бадий асослари: фалсафа фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент: 2011. – 135 б.

markaziga aylanib, “Sharq gavhari” sifatida tan olingan. Shuning uchun ham Axmatova butun insoniyatga o‘rnak bo‘la olgan, uning xotirasida “boqiy” qola olgan shaxslarning Vatani – Samarqandda vafot etishni istashi, Samarqandning uning xotirasida ham “boqiy” qolishini e‘tirof etadi (Samarqand shoiriga qadrlil bo‘lishining yana bir sababi – uning turmush o‘rtog‘i, san’atshunos N. Punin shu yerga evakuatsiya qilingani bo‘lishi ham mumkin).

She’ning navbatdagi misrasidagi “kishmish” obrazi – “boqiy atirgullar” bilan yonma-yon kelib, “boqiylik” ma’nosini kuchaytiradi (chunki kishmish – uzumning saqlangan, “boqiylik” ko‘rinishidir).

Mazkur she’riy parchada tabiat obrazlarining markaziy o‘rinni egallashi, ramziylikning kuchliligi – Sharq she’riyatiga xos bo‘lgan jihatlardan biri hisoblanadi. Axmatovaning ushbu she’rida mifologik tafakkur va tarixiy guvohlik birlashib, Sharq geografik makon sifatida emas, balki ma’naviy-poetik fazo sifatida namoyon bo‘ladi.

Shoirning 1942-yili Toshkentda yozilgan navbatdagi “Xafa hol uxlamoq” nomli she’rida Sharq mavzusi tush ko‘rish motivi orqali namoyon bo‘ladi:

Xafahol uxlamoq,
Sevilib uyg‘onmoq,
Qizg‘aldoqni qip-qizil ko‘rmoq.
Qandaydir kuch-quvvat
Kirgandir ushbu kun
Qo‘yingga yorug‘nur bo‘lib zulmat!
Mangalli tor hovli,
Tutung achchiqdir,
Terakday uzundir...
Shahrizoda
Kelmoqda bog‘dan...
Sharq shundoq huzurdir!

She’ning birinchi misralaridayoq lirik qahramonning ichki holati ziddiyatli psixologik holat orqali ochib beriladi: “Xafa hol uxlamoq” va “Sevilib uyg‘onmoq”

motivlari inson ruhiyatidagi o'zgarish, ichki qayta tug'ilish jarayonini ifoda etadi. Bu holat Sharq poetikasiga xos bo'lgan tush, ruhiy holat va mistik tajriba motivlari bilan uyg'unlik kasb etadi. Tush – real va irreal olamlar o'rtasidagi o'tish nuqtasi sifatida talqin qilinib, Sharq tafakkurida muhim ma'no kasb etadi.

Keyingi misralarda namoyon bo'lgan “Qandaydir kuch-quvvat” obrazi mistik-ma'naviy mohiyatga ega bo'lib, u Sharqqa xos muqaddaslik, g'aybiy qudrat tushunchalari bilan bog'lanadi. “Muqaddas makon” va “zulmat” so'zlarining yonma-yon qo'llanishi Sharq tafakkuridagi nur va zulmat qarama-qarshiligini anglatadi.

“Mangalli tor hovli” obrazi esa Toshkentning maishiy-madaniy muhitini hayotiy detal sifatida she'rga olib kiradi. Mangal tutunining achchiq hidi, havoning og'irligi, “baland terak” obrazi Sharq makonining hissiy-fizik tajribasini ifoda etadi. Ayniqsa, “baland terak” ramzi sharqona donolik, hayot bardavomligi va osmon bilan yer o'rtasidagi bog'lovchi timsol sifatida talqin qilinishi ham mumkin.

“Aytish mumkinki, Sharqni Misr ehromlari va Nil daryosi, falohlar to'yi, Suriya shomi, Himolay tog'i, hind qizi, Nishapur bog'lari, Xayyom g'azallari, Konfutsiy falsafasi, Zardusht ta'limoti, Bedil kalomlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi”⁷.

Shahrizoda – “Ming bir kecha” ertaklarining qahramoni Sharqni ifodolovchi universal obraz bo'lib, u vaqtlar, makonlar va madaniyatlarni birlashtiradi. Axmatova lirikasida Sharq Shahrizoda obrazi orqali afsonaviy, sexrli va abadiy ma'naviy makon sifatida namoyon bo'ladi.

She'ring so'nggi misrasi – “Sharq shundoq huzurdir” – lirik kashfiyot, tan olish va ma'naviy yaqinlikni ifoda etadi. Bu joyda Sharq tashqi ekzotika emas, balki shoir qalbida kechgan ichki tajriba, ruhiy uyg'onish manbai sifatida talqin etiladi. Mazkur she'r Axmatova ijodida Sharq obrazining shakllanishida muhim bosqichni aks ettiradi.

Toshkent muhiti, Sharq madaniy an'analari, ramziy obrazlar (tush,

⁷ Айматов А. Қ. Абдулҳамид Чўлпон эстетикасининг ғоявий-бадий асослари: фалсафа фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент: 2011. — 135 б.

qizg'aldoq, terak, Shahrizoda) orqali shoir Sharqni tarixiy yoki geografik makon emas, balki chuqur falsafiy va estetik qimmatga ega ma'naviy olam sifatida talqin etadi. Ushbu she'r Ahmatovaning Sharqqa bo'lgan ruhiy yaqinligini, madaniy muloqotini va uning badiiy tafakkurida Sharqning tutgan o'rini yorqin namoyon qiladi.

Cho'lponning 20-yillar lirikasida Sharq mavzusi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu mavzu ilk bor shoirning "Sharq nuri" she'rida tilga olinadi:

So'ng davrda yo'qsul Sharqning tarixi
Bir bet bo'lsun, oq satrni ko'rmasi.
Dunyo tarixini yozgan muarrix
Yaxshilikga qalamini burmasi.
Sharqning qaysi burchagini qarasang,
Yo'qlik, o'lim, zulm, qarghish ko'rarding.
"Tomug'" degan so'zni bilmak istasang,
Sharqni boshdan oyoqqacha yurarding.
Bir zamonlar yer yuzinda o'z boshli
Ulug', shonli madaniyat tug'dirgan
U go'zal Sharq, shirin tuproq so'ng zamon
Bo'ldi chetlar panjasida ko'z yoshli...

1918-yilda yozilgan mazkur she'r Abdulhamid Cho'lpon ijodida Sharq obrazining ilk konseptual badiiy ifodasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Bu yil Turkiston tarixida eng fojiali, keskin burilish nuqtalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ana shu sharoitda yaratilgan she'r Cho'lpon ijodida Sharq obrazini falsafiy-tarixiy **konsepsiyaga** aylantirish jarayonining boshlanishi sifatida qaralishi mumkin.

She'rdagi lirik subyekt esa individual his-tuyg'ularni ifoda etuvchi "men" sifatida namoyon bo'lmaydi, balki butun Sharq **sivilizatsiyasining** tarixiy taqdiri haqida fikr yuritayotgan umumlashgan ma'naviy-siyosiy ong sifatida ifodalanadi. Bu holat L. Ginzburg ta'riflagan "ijtimoiy lirikada lirik "men"ning tarixiy tajriba subyektiga aylanishi bilan hamohangdir"⁸ qonuniyatiga to'liq mos keladi. She'r

⁸ Темуров Ж.Б. Миф о Востоке в лирике А.А.Ахматовой
www.tadqiqotlar.uz

quyidagi misralar bilan ochiladi:

So‘ng davrda yo‘qsul Sharqning tarixi

Bir bet bo‘lsun, oq satrni ko‘rmasdi

Bu yerda “oq satr” obrazi ezgulik, poklik yoki abstrakt axloqiy ma’noni emas, balki Sharqning so‘nggi tarixida mustaqil taraqqiyot, milliy davlatchilik, erkin madaniy rivojlanish imkoniyati yo‘q qilinganini ifodalaydi. Lirik subyekt ta’kidlayotgan asosiy g‘oya shundaki, Sharqning so‘nggi tarixi: o‘z irodasi bilan yozilmagani, mustamlakachilik siyosati ta’sirida shakllangani; milliy qadriyatlar, ziyoli qatlam, tarixiy xotira sistemali ravishda yo‘q qilingani tarixdir. Shu ma’noda “oq satr” –mustamlaka sharoitida yo‘qotilgan erkin tarixiy yo‘l ramzidir. “Yo‘qsul” so‘zi esa iqtisodiy qashshoqlikdan ko‘ra kengroq ma’noga ega bo‘lib, siyosiy, ma’naviy va **sivilizatsion** tanazzulni anglatadi.

Dunyo tarixini yozg‘an muarrix

Yaxshilikg‘a qalamini burmadi.

Bu misralarda lirik subyekt tarixni yozayotgan “muarrix”ni neytral shaxs sifatida emas, balki mustamlakachilik ongiga xizmat qiluvchi ideologik figura sifatida talqin qiladi. Ya’ni, Sharq fojeasi faqat zo‘ravonlik natijasi emas, balki tarixiy haqiqatning ataylab o‘zgartirilishi orqali mustahkamlangan. Bu o‘rinda lirik subyekt:

- Sharqni «tabiiy qoloq» deb tasvirlovchi tarixiy narrativni rad etadi;
- zulmni oqlovchi tarix yozish amaliyotini fosh qiladi.

“Tomug” metaforasi esa Sharqning fojeasini aks ettiradi:

“Tomug” degan so‘zni bilmak istasang,

Sharqni boshdan oyoqqacha yurarding.

Bu o‘rinda Sharq obrazi faqat geografik makon sifatida emas, balki zulm, yo‘qlik va halokatga mahkum etilgan **sivilizatsion** makon sifatida modellashtiriladi. Y. Lotman ta’biri bilan aytganda, “matnda real makon emas, semantik makon”⁹

⁹ Lotman Ю. М. Об интеллекте, тексте и семиосфере

yaratiladi. Lirik subyekt Sharqni “jazo maydoni” sifatida taqdim etmaydi, aksincha uni jazoga nohaq mahkum qilingan makon sifatida namoyon etadi. Bu ta’rif muhim ahamiyatga ega, chunki ayb Sharqda emas, balki uni bu holatga solgan tarixiy va ijtimoiy kuchlarda ekanligi yorqin tarzda ko’rsatiladi. Bu yo‘l bilan Cho‘lpon she’riyati Sharq obrazini faqat vizual tasvirdan emas, balki tarixiy va sivilizatsion voqelikning ma’naviy-simvolik namoyoni sifatida chuqur anglash imkonini beradi:

Bir zamonlar yer yuzinda o‘z boshli
Ulug‘, shonli madaniyat tug‘dirgan
U go‘zal Sharq...

Bu misralarda lirik subyekt Sharqni, yuqorida ta’kidlanganidek, tarixsiz makon sifatida emas, balki ilgari mustaqil, qudratli sivilizatsiya bo‘lgan makon sifatida eslaydi. Demak, tanazzul tabiiy emas, tarixiy zo‘ravonlik natijasidir. Shu tarzda she’rda quyidagi uch bosqichli model shakllanadi:

- Sharq – mustaqil sivilizatsiya;
- Sharq – mustamlakachilik ostida tanazzulga uchragan makon;
- Sharq – tarixiy adolat tiklanishi kerak bo‘lgan obyekt.

Shu tariqa, mazkur she’r Cho‘lpon lirikasida Sharq obrazining ilk bor mustamlakachilik tarixi nuqtai nazaridan konseptuallashtirilgan badiiy matni hisoblanadi.

Mazkur “Shark nuri” she’rining mazmuniy davomi sifatida Cho‘lpon 1920-yilda “Bokuga Sharq qurultoyiga ketkanda” nomli she’rini yozadi:

Yo‘limizda cho‘llar, suvlar, dengizlar,
Bosuvchisin tanib bo‘lmaslik izlar,
Shul izlarni bosib, dengizlar kechib,
Buyuk amal bilan boramiz bizlar!
Yurakdagi saqlab borgan amallar,
Yo‘llardagi dengizlardan ulug‘roq;
Ezilganlar tilak tilar bu yo‘li
Avvalgidan to‘lug‘roq.
Mahkam qilib bog‘lanilgan kamarlar...

Sharqning eski chigalini echaylik.

Mazkur she'r birinchisidan farqli o'laroq, Cho'lpon ijodida tragik kuzatuvdan irodaviy harakatga o'tish bosqichini belgilaydi. Agar 1918-yildagi ("Sharq nuri") she'rida Sharq obrazi mustamlakachilik natijasida tanazzulga uchragan **sivilizatsiya** sifatida tasvirlangan bo'lsa, oradan ikki yil o'tib, 1920-yilda yozilgan mazkur she'rda Sharq endilikda yechilishi lozim bo'lgan tarixiy muammo, harakat maydoni sifatida namoyon bo'ladi. Shoir "Sharq tarixi va taqdirida nihoyatda murakkab, chigal jumboqlar borligi, uni ochmoq uchun tayyorlanish kerakligiga ishora qiladi"¹⁰. Bu o'zgarish Cho'lpon lirik subyektining ham sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi: lirik subyekt endi faqat tahlil qiluvchi ong sifatida emas, balki tarixiy amal subyekt sifatida namoyon bo'ladi:

Yo'limizda cho'llar, suvlar, dengizlar,

Bosuvchisin tanib bo'lmaslik izlar,

Bu o'rinda lirik subyekt yakka "men" emas, balki jamoaviy "biz" orqali ifodalanadi. L. Ginzburg ta'kidlaganidek, "ijtimoiy-tarixiy lirikada "lirik men" ko'pincha umumlashgan jamoaviy ongga aylanadi"¹¹. Endilikda Cho'lponning mazkur "biz"i – millatning harakatdagi ongi; tarixiy mas'uliyatni zimmasiga olgan subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat esa mazkur lirik subyekt 1918-yildagi she'rdagi fojeani anglatotgan subyektdan **printsipial** farq qilishini anglatadi:

Shul izlarni bosib, dengizlar kechib,

Buyuk amal bilan boramiz bizlar!

Y. Lotmanning ta'kidlashicha ("badiiy makon" nazariyasiga ko'ra), "adabiy matnda makon geografik emas, semantik to'siqlar tizimi sifatida harakatlanadi"¹². Mazkur she'rdagi tabiat manzarasini shakllantirayotgan badiiy obrazlar: "cho'llar", "suvlar", "dengizlar" ham real makonni emas, balki Sharq oldida turgan tarixiy, siyosiy va ma'naviy to'siqlarni ramziy ifodalaydi. Lirik subyekt bu to'siqlarni faqat kuzatmaydi – ularni bosib o'tadi.

¹⁰ Айматов А.Қ. Абдулхамид Чўлпон эстетикасининг ғоявий-бadiий асослари.

¹¹ Гинзбург Л. Я. О лирике, Л., 1964.

¹² Лотман Ю. М. Структура художественного текста, М., 1970.

Bu jihatdan esa mazkur she'r "Sharq nuri" she'ridagi "Sharqni boshdan oyoqqacha yurarding" degan fojeaviy harakatdan maqsadli harakatga o'tishni ifoda etadi:

Yurakdagi saqlab borgan amallar,

Yo'llardagi dengizlardan ulug'roq;

M. Baxtin qarashlariga ko'ra, "badiiy subyekt – bu faqat hissiyot emas, balki qadriyatlar pozitsiyasiga ega bo'lgan ongdir"¹³. Mazkur misralarda "amal" so'zi Cho'lpon poetikasida axloqiy-tarixiy iroda ma'nosini oladi.

Ushbu misralarda lirik subyekt tarixiy fojeani anglaydi, lekin uni taqdir deb qabul qilib, unga rozi bo'lmaydi, aksincha ma'naviy qaror qabul qiladi. Shu ma'noda "amal" – Sharqning yangi tarixi uchun zarur bo'lgan ichki kuch sifatida talqin qilinishi mumkin:

Sharqning eski chigalini yechaylik.

Bu misra butun she'rning konseptual asosini tashkil etadi. Agar 1918-yilda Sharq: "oq satr" ko'rmagan tarix, "tomug'"ga teng makon sifatida berilgan bo'lsa, 1920-yilga kelib esa u: taqdiri murakkab, lekin yechilishi mumkin bo'lgan "chigallik" sifatida tasvirlanadi. Ginzburg ta'biri bilan aytganda, "lirik subyektning tarixiy ongga aylanishi"¹⁴ kuzatiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqsak, A. Axmatova va A. Cho'lpon ijodida Sharq obrazi har ikkala shoirning poetik tafakkurida muhim o'rin egallaydi, biroq ular uning ifoda uslubi, funktsiyasi va ma'naviy-qimmatini nuqtai nazaridan turlicha talqin qiladilar.

Axmatova lirikasida Sharq geografik makondan ko'ra ma'naviy va estetik fazo sifatida namoyon bo'ladi. Toshkentdagi evakuatsiya davrida yozilgan she'rlarida Sharq:

- mifopoetik – Shahrizoda, bog', tush va afsona motivlari orqali,
- ramziy – atirgul, kishmish, devor, bog' kabi obrazlar orqali,
- ekzistensial – panoh, uy, ruhiy taskin va yashash fazosi sifatida,

¹³ Бахтин М. М. Автор и герой в эстетической деятельности, М., 1979.

¹⁴ Гинзбург Л. Я. О лирике. — Москва: Интрада, 1997. — 416 с. .

- madaniy va insonparvar – mehmondo‘stlik, birdamlik va ma’naviy yaqinlik ramzi sifatida tasvirlanadi.

Axmatova uchun Sharq turli qirralarda – qadimiylilik, abadiylilik, tarixiylik va inson xotirasi bilan bog‘liq universal madaniy fenomen sifatida ochiladi. Shu bois, Sharq urush va evakuatsiya sharoitida ruhiy panoj va poetik markaz vazifasini bajaradi.

Cho‘lpon ijodida Sharq obrazi esa milliy ongning shakllanishi va mustamlakachilikka qarshilik poetikasi kontekstida namoyon bo‘ladi. Unda Sharq:

- tarixiy-falsafiy makon – azob, zulm va yo‘qlikka mahkum sivilizatsiya sifatida;
- semantik va simbolik fazo – tarixiy qudrat va madaniy merosning ramzi;
- lirik subyektning tarixiy tajriba obyektini – individual his-tuyg‘ulardan ko‘ra umumlashgan ma’naviy-siyosiy ong orqali idrok qilinadi.

Shuningdek, Cho‘lpon lirikasida Sharq kontseptual va intizomli poetik model sifatida ochiladi, unda inson va tarixiy voqelikning ziddiyatliliigi alohida ta’kidlanadi.

Axmatova va Cho‘lpon ijodidagi Sharq obrazi turli kontekstda: shaxsiy-ekzistensial tajriba, madaniy va mifopoetik fazo hamda tarixiy-qudratli sivilizatsion makon sifatida shakllanadi. Ular orqali XX asr rus va o‘zbek poetikasida Sharqning kontseptual, estetik va falsafiy muhimligi, shuningdek, uning milliy, madaniy va shaxsiy tafakkurdagi o‘rni namoyon bo‘ladi.

Shu tariqa, Axmatova va Cho‘lpon ijodida Sharq obrazi o‘xshash va farqli xususiyatlarga ega. Ular har ikkala shoirida ham lirik subyektiv tajribani boyituvchi, umummilliy ma’naviy ongni namoyon qiluvchi markaziy semantik element sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Farqli jihati shundaki, Axmatova Sharqni shaxsiy tajriba, estetik va madaniy fazo nuqtai nazaridan ochsa, Cho‘lpon uni tarixiy-ziddiyatli, siyosiy-ijtimoiy qimmatlarga ega, milliy ongning evolyutsiyasi va sivilizatsion fojeani aks

ettiruvchi kontseptual obraz sifatida taqdim etadi. Bu yoʻl bilan har ikki shoir lirikasida Sharq obrazi nafaqat badiiy va ramziy xususiyatga ega, balki milliy, tarixiy va sivilizatsion maʼnoni chuqur ifodalaydigan ilmiy-tanqidiy fenomenga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Иванов Вяч. Вс. Темы и стили Востока в поэзии Запада // Иванов Вяч. Вс. Восточные мотивы. Стихотворения и поэмы. М.: Наука, 1985. 880с.
2. Лихачев Д.С. Заметки о русском. 2-е изд., доп. М.: Сов. Россия, 1984. 240 с.
3. Темуров Ж.Б. Миф о Востоке в лирике А.А.Ахматовой
4. Айматов А. Қ. Абдулҳамид Чўлпон эстетикасининг ғоявий-бadiий асослари: фалсафа фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент: 2011. — 135 б.
5. Лотман Ю. М. Об интеллекте, тексте и семиосфере
6. Бахтин М. М. Автор и герой в эстетической деятельности, М., 1979.
7. Гинзбург Л. Я. О лирике. — Москва: Интрада, 1997. – 416 с. .